

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-11/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

**МУНДАРИЖА
ТАРИХ ФАНЛАРИ**

Gadayev O.O. Samarqand mahallalarining Rossiya imperiyasi davri qisqacha tarixi	5
Jumaniyozov X. Dastlabki geosiyosiy bilimlar va ularning xalqaro munosabatlar takomilida tutgan o‘rni	8
Matmuratova S.X. Ustyurt platosi paleolit davri paleogeografik xususiyatlari, odamzotning o‘zlashtirishning xududiy chegaralari va kartografiyasiga oid ba’zi mulohazalar	10
Sharipov Sh.F. O‘zbekistonda xususiylashtirish jarayoni: xorij ommaviy axborot vositalari nigohida	12
Абдуллаев Ў.Ш. Олий маълумотли педагогик кадрлар тайёрлаш тарихидан	15
Абдуллажанова Н.Т. Беруний ва Ибн Сино ҳаёти ва илмий мероси тарихшунослигига доир	18
Артиков З. Атоулло Хўжаев – истиқлол курашчиси ва ҳимоячиси	20
Вахобов Б.М. Фарғона водийси этник таркибини XIX – XX аср бошларида ўрганилиши	23
Жуманиёзов Ф.Б. Мустақиллик йилларида Хоразм вилоятининг меҳнат ресурсларининг шаклланиши ва унинг вилоят демографик вазиятига таъсири	26
Жуманиязова Ф.Ж. Маориф, маданият ва санъат соҳаларида хоразмлик хотин-қизларнинг ватанпарварлик ҳаракатлари	29
Исхаков Б.Б. “Авесто”да тупроқни эъзозлаш билан боғлиқ қарашлар таҳлили	32
Каромов Ғ.Х. Ўрта Осиёдаги эпидемияларнинг аҳоли ижтимоий ҳаётига таъсири	35
Кличев О.А., Субханова Н.А. Газета «Народное слово» как источник освещения истории отношений Узбекистана и Таджикистана	38
Матякубов Ш.С. Халқ ҳунармандчилиги ва амалий санъат турларининг Хоразмшоҳ Маъмун давридан Хива хони Абулғозий Баҳодирхон давригача ривожланиш босқичлари	42
Маҳмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Италия шаҳарларининг ўрни: Неаполь ва Падуа	45
Машарипова С.А. Қорақалпоғистон турар жойлари тарихи	49
Норматов Ш. Фарғона водийсининг антик давр ҳимоя иншоотлари	53
Нурқулова Р.Р. Ўзбек давлатчилиги тарихида Убайдуллахоннинг тутган ўрни	56
Ражабов С. Академик Бўрибой Аҳмедов илмий тадқиқотларида Бухоро	59
Ражабова Д.Ш. Уникальные шедевры истории и культуры нашей родины, которые находятся за пределами нашей страны	61
Рахматова Д.Ж. Қашқадарё вилоятида амалга оширилган пахта яккаҳоқимлиги сиёсатининг ижтимоий аҳволга таъсири	64
Рўзиев Д.А. Қашқадарё воҳасида совет ҳокимиятининг чорвачилик сиёсати ва чорва сонларидаги ўзгаришлар	69
Тураев А.С. АҚШ неоконсерваторларнинг 2008 йилдан кейинги даврлардаги ташқи сиёсий ёндашувлари ривожини	71
Тўраев М. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистонда тиббиёт: аҳолининг саломатлик даражаси	74
Турдиев Б. «Қорақалпоқ» ва «Орманбет бий» тарихий шеърлари	77
Турсунов Ф.Ғ. Қадимги ва ренессанс даврларида ҳуқуқий таълимнинг ривожланиш тарихи	81
Фарходжонова Н.Ф. Жаҳид ҳаракати намояндаларининг жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётига таъсири	84
Хасанова З.Дж. Использование труда военнопленных в Туркестане для строительства грунтовых и железных дорог в годы первой мировой войны	87
Хосиятов Х.О. Халқаро ҳамкорлик: Шаҳрисабздаги Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейи экспозициялари ва кўرғазмалари	90
Хужаниязов У.Е. “Қорақалпоқфильм” студияси: тарих ва истиқболлар	93

Шукуров С.Ж. Ўзбекистон Республикасининг Марказий Осиё мамлакатлари билан ҳамкорлигининг шаклланиши масалаларига доир	96
Якубова Ш.А. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида фармацевтика фанини ривожлантириш тадбирлари	99
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Adizova N.B., Haydarova B.D. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish omillari	102
Adizova N.B., To'yumurodova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishning didaktik vositalari	105
Allayev Z.M. Enhancing the effectiveness of activities by modifying their original versions according to the needs of language learners	107
Bekmanova G. Kimyo o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalarni qo'llash usullari va vositalari	109
Ibroximov J.M. Metrologiya, standartlashtirish sohasida pedagogik texnologiyalar	112
Inomiddinova D.I. Stages of development of linguistics and linguistic schools	115
Isroilova S.M. Formation of legal culture of future teachers in the study of pedagogical disciplines at the university	117
Jo'rayev A.Q., Abdullayeva Z.I. O'smirlarda sinfni idrok etish jarayoni: Oilaviy muhit va ta'lim tarbiyaning psixologik xususiyatlari	119
Khazratova G.Sh. Intercultural teaching methods of english at higher education establishments	123
Kholikova D.Sh. The role of sociolinguistic competence in teaching English	126
Khujaniyazova G.Yu., Sapaeva F.N. Structural and content characteristics of the teacher's innovative competence	128
Madumarova M.Dj. Improving the quality of teaching in russian lessons to a new level	131
Mamajonov U.M. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar	133
Mutalov D. Turk tilini chet tili sifatida o'qitishning metodik asoslari	138
Otaniyazova M. The application of modern multimedia technologies in english lessons	141
Qipchaqova Yo.H. Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy yondashuv asosida tarbiyalash	143
Razzaqov B.A. Using technologies for speech devolopment	145
Sadikova O.S. The principle of collaborative learning in foreign language teaching	147
Saidova G.E., Qahhorova A.Sh. Boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarni joriy etishning ilmiy - pedagogik asoslari	150
Sharipova S.B. Formation of independent work in non-philology private universities	152
Umarova G.Sh. Bo'lajak menejrlarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	155
Xudaynazarova D.B., Abdullayeva F.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiya berishning turlari va usullari	157
Yuldashev M., Muhammadiyev M. The healing power of music	160
Zulunov R. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llanilishi	163
Акбаров Б. Олий таълим талабаларининг креатив қобилиятини шакллантириш	166
Будикова М.Х. Использование мультимедийных средств обучения на уроках иностранного языка в АГМИ – закономерный этап развития педагогических технологий	168
Кадирова Д.Ф. Чет тили дарсларида амалий нутқ кўникмаларини шакллантириш	170
Мамажонов Г. Биоэтикада ахлоқий меъёр ва тамойилларнинг ижтимоий инъикоси	174
Рашидова З.О. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоий-ҳиссий соҳасининг ривожланиши	176
Цой А.П. Об использовании проектной технологии обучения на занятиях по русскому языку в иноязычных группах	178
Шукурова Ш.К. Взаимосвязь между критическим мышлением и разговорными навыками учащихся лингвистических ВУЗов	181

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

UO'K 37.02

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI

N.B.Adizova, dots., BuxDUPI, Buxoro
B.D.Haydarova, magistrant, BuxDUPI, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutq o'stirish metodikasi, og'zaki va yozma nutq, ularning o'zaro uzviy bog'langanligi, o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llari, sifatli ta'lim berish jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan kommunikativ ko'nikmalari va boshqalar yoritiladi

Kalit so'zlar: Metodika, yozma nutq, og'zaki nutq, kommunikativ ko'nikma, ta'lim tizimi, chiroyli so'zlashni;

Аннотация. В статье описывается методика развития речи на уроках родного языка начальных классов, устной и письменной речи, их взаимосвязь, особенности, значение учащихся в своей речи в развитии устной речи, выявление причин недостатков, пути их устранения.

Ключевые слова: Методика, письменная речь, устная речь, коммуникативные навыки, система обучения, красивая речь;

Abstract. The article describes the methodology of speech development in primary school mother tongue classes, oral and written speech, their interrelationship, specific features, the importance of students in their speech in the development of oral speech identifying the causes of deficiencies, ways to eliminate them, communicative skills that should be formed in students by achieving speech development in the process of quality education, etc.

Key words: Methodology, written speech, oral speech, communicative skills, educational system, beautiful speaking;

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishda zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqdaki, bu o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida o'rin ajratilishiga sabab bo'lmoqda. Bunday yondashuv ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishni nazarda tutadi. Bunga esa ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish strategiyalarini takomillashtirish orqali erishish mumkin.

Ta'lim mazmunini bashorat qilishda uning maqsadi yo'naltiruvchi asos hisoblanadi. Afsuski, bu holat o'quv dasturlari va darslik mualliflari tomonidan ko'pincha hisobga olinmaydi. Natijada ta'lim mazmuni bilan uning maqsadi orasida nomutanosiblik vujudga keladi. Bu esa pirovard natija hisoblangan o'quv jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs taraqqiyotiga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni olib kirish zaruriyati ta'lim mazmuni bilan uning maqsadi orasida mutanosiblikni ta'minlashni taqozo qiladi.

So'nggi yillardagi islohotlar ta'lim mazmuni bilan uning maqsadi orasida mutanosiblikni ta'minlash sohasida muhim qadam bo'ldi. Ma'lumki, insoniyat yuqori darajada axborotlashgan jamiyatda yashamoqda. Ta'limning xususiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni o'ta sifatli, ularni ma'naviy-intellektual jihatdan rivojlantirishga ko'maklashadigan axborotlar bilan qurollantirishdan iborat. Ushbu maqsadga mos keladigan ta'lim mazmuni, avvalambor, darsliklar va o'quv kitoblarida muayyan izchillikda aks etishi kerak. Chunki yangi davr kishisi ijtimoiy, moddiy, madaniy taraqqiyotni tamoman yangi bosqichga ko'taradigan qator o'zgarishlarni vujudga keltira oladigan mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu esa ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim mazmunini yangi o'quv modellari vositasida ifodalashni talab qiladi.

Ta'lim maqsadiga muvofiq keladigan ta'lim mazmuni va uni ifodalovchi o'quv modellari o'quv-biluv jarayonining muhim tashkiliy qismi hisoblanib, uning asosiy maqsadi o'zgarishlarni ta'lim mazmunining DTSda belgilab quyilgan negiziga mutanosib tarzda kiritishdan iboratdir

Bugungi kunda ta'lim maqsadi asosida uning mazmunini muntazam yangilash, uning shaxsga yo'naltirilgan demokratik modelini belgilab berish zaruriyati mavjud. Ta'lim maqsadiga mos ravishda o'quv-biluv jarayoni mazmunida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'quv topshiriqlari muntazam yangilanmoqda. Bu pedagogik tadbir ta'lim maqsadining rivojlanayotganligi bilan bog'liq tarzda amalga oshirilmogda. Bu o'z navbatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga olib kirishni talab qilmoqda. Masalan,

“O'simlik otlari” mavzusi bo'yicha interfaol usullarni qo'llash

(Izoh: Ushbu dars ishlanmasida 4-sinf o'quvchilarining darslikda berilmagan, ammo ularga yondosh o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlari aks etgan.)

“Insert” usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi. Bunda o'qituvchi quyidagi matnni guruhlariga bo'lingan o'quvchilarga tarqatadi:

O'simlik

O'simlik – hayot manbai. Tirik mavjudot hayotini o'simliklar olamisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, yashil o'simliklar bargi bilan turli changlarni tutib qoladi. 100 tub yosh terak bir yil davomida 75 kg changni ushlab qoladi. Chinor, zarang, lola va olma barglari eng sifatli “changyutgich”dir. Shuning uchun o'simliklarni “salomatlik posbonlari” deyishadi. O'simliklar odam uchun havo, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiali, uy-ro'zg'or buyumlari, matolarga rang beruvchi bo'yoqlar, efir moylar, spirt, shuningdek, xalq xo'jaligining turli sohalari uchun xom ashyo manbai hisoblanadi.

O'zbekistonning “Qizil kitobi” 1984-yilda chop etilgan. Unga respublikamizdagi kamyob va yo'qolib ketish xavfi bor 163 turdagi o'simliklar nomi kiritilgan. Kitobning qayta nashri 301 tur o'simlikni o'z ichiga olgan. 1983-yilda Respublikamizda “Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi” tashkil etildi.

O'quvchilar matnni o'qib chiqadilar va har bir gap oldiga quyidagicha izoh beradilar: Bilardim. Bildim. Bila olmadim kabi.

O'qituvchi matnni yig'ib olib tanishgach, xulosa chiqaradi va “Bila olmadim” tarzida izohlangan satrlarni tushuntirib beradi.

“Sinkveyn” usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi: O'quvchilar uch guruhga ajratilib, har bir guruhga bittadan so'z beriladi. O'quvchilar muayyan so'zni mavzu sifatida olib, unga sifat va fe'llar qo'yib, so'z birikmalari hamda gap tuzadilar. Masalan:

1-guruh. Mavzu: O'RIK (daraxt)

Sifat: sershox, katta (o'rik daraxti)

Fe'l: (O'rik) gullaydi, meva beradi

Gap: O'rik daraxti chiroyli gullaydi.

2-guruh. Mavzu: Atirgul (o'simlik)

Sifat: qizil xushbo'y

Fe'l: (Atirgul) ochiladi, zavq bag'ishlaydi.

Gap: Atirguldin xushbo'y ichimlik tayyorlanadi.

3-guruh. Isiriq (giyoh)

Sifat: foydali va shifobaxsh

Fe'l: (Isiriq) davolaydi; urug'laydi.

Gap: Isiriq ko'pgina kasalliklarga davodir.

Topshiriqlarni tez va xatosiz bajargan guruh rag'batlantiriladi.

“Uchburchak o'yini” usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi: Har bir guruh sardori o'qituvchi tomonidan tayyorlangan uchburchaklardan bittasini tanlaydi. Shaklning 3 tomoniga topshiriqlar yozilgan va birorta o'simlik rasmi yopishtirilgan bo'ladi. Masalan:

1-tomon. U haqida she'r yoki qo'shiq aytib bering.

2-tomon. Uni ta'riflang, matn tuzing.

3-tomon. Uyadosh so'zlar toping.

She'r va matnlar markerlar yordamida qog'ozga yozilib, ularning taqdimoti o'tkaziladi. Masalan, 1-guruh a'zolari quyidagicha she'r yozib, matn tuzdilar:

Atirgul

1. Gul jannatdan hadya bir ne'mat erur,

Guldin kishilar yuziga yog'ilur nur.

Bardoshsizlar qo'rqadilar xoridan,

O'rgilayin shunday gulning boridan.

Etaklari nurga to'lgan atirgul,

Yaproqlari durga to'lgan atirgul.

2. Gullar inson hayotida alohida o'rin tutadi. Dunyoni go'zal qilib, qalblarga zavq bag'ishlaydi. Xushbo'y, chiroyli va rang-barang gullarni kim sevmaydi, deysiz. Atirgul – gullar malikasi. Uning husni, xushbo'y hidi hammaga yoqadi. Bu gul oq, qizil, sariq, pushti ranglarda bo'ladi. Odamlar yaxshi kunlar - to'y-tantanalar, tug'ilgan kun va bayramlarda bir-birlariga atirgul sovg'a qiladilar.

3. Uyadosh so'zlar: gul ... atirgul, chinnigul, nastarin, gultojixo'roz va h.k.

Topshiriqlarni tez va xatosiz bajargan guruh a'zolari rag'batlantiriladi.

Ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim jarayonining natijalari o'quvchiga aqliy, huquqiy fuqarolik, kommunikativlik, axborotli va tafakkurning boshqa yo'nalishlarida chuqur mahoratga ega bo'lish imkonini berishi lozim. Bunda o'quv-biluv jarayonida muhim o'rinni o'qituvchilar bilan o'quvchilar orasida o'zaro fikr almashishga imkon beradigan ta'limiy topshiriqlar egallashi zarur. Masalan, Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar ongiga milliy istiqloq g'oyalari quyidagi tartibda singdiriladi:

“Milliy o'quv dasturi”da ko'rsatilganidek: “.. milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z Vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy-madaniy, tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosga hurmat” ma'naviy tarbiyaning eng muhim omillaridan bo'lishiga e'tibor qaratilishi lozim. Ona tili mashg'ulotlarida esa bunga erishish imkoniyatlari ko'p. Ayniqsa, mazmuni vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan kichik matnlarni tahlil qilish, satrlarni izohlash o'quvchiga ma'naviy ozuqa beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бобомуродова А. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш: пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 1997.– 29 б.

2. Дўстмуродова О. Она тили таълими янги педагогик технологиясининг моҳияти. – Т.: РТМ, 2005. – 36 б.

3. Matchonov S. va b. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – Т.: Yangiyo'l poligraf servic, 2008. – 224 b.

4. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 112 б.

5. Қосимова К. ва б. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси. –Т.: Ўқитувчи, 2009. –215 б.

6. Ўзбек тили таълимида миллий истиқлол ғоясини сингдириш масалалари. ЎТДА 7-йиғини материаллари тезислари (Масъул муҳаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2003. – 124 б.